XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 2-may VI-56-63-3-48-K/24 Zomin tumani

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli qarorining 1-bandida mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari etib, avtomobil yo‘llari infratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining “Piyoda-jamoat transporti-velotransport-avtotransport”ustivorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish belgilangan.

Viloyat hududida yo‘l harakati ishtirokchilariga yaratilayotgan sharoitlar va olib borilayotgan profilaktik chora-tadbirlarga qaramasdan Zomin tumani hududida 2024-yil boshidan fevral oyining 27-kuniga qadar 9 ta yo‘l-transport hodisalari sodir etilganligi, yo‘l-transport hodisalarida 4 nafar fuqarolar vafot etgan, shu bilan birgalikda 5 nafari tan jarohat olgan. Ushbu yo‘l-transport hodisalari sodir etilgan yo‘llar bo‘yicha tahlili davlat ahamiyatga ega bo‘lgan 4R-40 “Dashtobod-Zomin-Supa-Baxmal-G‘allaorol” avtomobil yo‘lining 3-20-km.larida sodir bo‘lgan. Har bir hodisa oqibatida fuqarolar bevaqt olamdan o‘tayotganligi ma’lum bo‘lgan.

Misol uchun, 2024-yilning 02-yanvar kuni soat 17^{00} larda 4R-40 avtoyo‘lining 2-km.da fuqaro Saitmurodov Orifjon Allamurodovich o‘zining boshqaruvida bo‘lgan SAZ NP 21 rusumli 25 L 990 HA davlat raqam belgili transport vositasini “Dashtobod-Zomin” yo‘nalishi bo‘yicha boshqarib borib, chapga burilayotgan vaqtda o‘ziga nisbatan qarama-qarshi yo‘nalishdan harakatlanib kelayotgan “VAZ-2106” rusumli 25 X 642 BA davlat raqam belgili transport vositasining yo‘liga chiqib ketib, yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan. Yo‘l-transport hodisasi natijasida “VAZ-2106” rusumli 25 X 642 BA davlat raqam belgili transport vositasining salonida bo‘lgan yo‘lovchi 1973-yilda to‘g‘ilgan fuqaro Jalmatova Feruza Olish qizi tan jarohati olib, Zomin tumani markaziy kasalxonasida olib borilgan muolajarlarga qaramasdan vafot etgan.

Zomin tumani ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i T.Jo‘rayevning tumanda sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodisalari ro‘y bergan yo‘l qismlari infratuzilmasidagi bir qator kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha bergan takliflarini eshitib va muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat

hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Zomin tumani ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i T.Jo‘rayevning tumanda sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodisalarini oldini olish to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Zomin tumani ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i T.Jo‘rayevning tumanda yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kiritgan takliflari ma’qullansin.

3. Zomin tumani ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i T.Jo‘raev tegishli tuman tashkilotlari bilan birgalikda Jizzax viloyati ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi bilan kelishgan holda tumanda yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida 4R-40 “Dashtobod-Zomin-Supa-Baxmal-G‘allaorol” avtomobil yo‘lidagi barcha mayda chuqurlarni ta’mirlash va yo‘lni kengaytirish choralarini ko‘rib, transport vositalarining qarama-qarshi yo‘nalishlarga chiqib ketishlarining oldini olish uchun beton to‘siqlar (BDO-5) o‘rnatish;

- ta’mirlangan yo‘l qismlaridagi barcha piyodalar o‘tish joyi yo‘l belgilarini almashtirib, yo‘l yotiq chiziqlarini chizish hamda tungi yoritish chiroqlari bilan jihozlash choralarini ko‘rish;
- 4R-40 “Dashtobod-Zomin-Supa-Baxmal-G‘allaorol” avtomobil yo‘lining 6-7-km.lari oralig‘ida “Surxonobod, 8-9-km.lari oralig‘ida “Boymoqli”, 9-15-km.lari oralig‘idagi “Misrali” nomli geografik joy nomlarini bildiruvchi ko‘k rangli fonda o‘rnatilgan 5.24 “Aholi punktining boshlanishi” va 5.25 “Aholi punktining oxiri” yo‘l belgilarini oq rangli 5.22 “Aholi punktining boshlanishi” va 5.23 “Aholi punktining oxiri” yo‘l belgilari bilan almashtirib, ushbu hududlarda tarnsport vositalarining harakatlanish tezligini soatiga 70 kilometrdan oshirmasdan harakatlanishiga ruxsat berish;
- o‘rnatilayotgan har bir 5.22 va 5.23 yo‘l belgilarini aholi yashash joylari binolarining haqiqiy chegarasiga o‘rnatish;
- 4R-40 “Dashtobod-Zomin-Supa-Baxmal-G‘allaorol” avtomobil yo‘lining 3-5-km.lari oralig‘ida “Dashtobod” nomli aholi yashash punkti hududida yo‘l chetlarida piyodalar, ayniqsa maktab o‘quvchilarining xavfsiz yurishlariga sharoitlar yaratish uchun piyodalar va velosiped yo‘laklarini qurish hamda tungi yoritish chiroqlari bilan jihozlash choralarini ko‘rsin.
- 4R-40 “Dashtobod-Zomin-Supa-Baxmal-G‘allaorol” avtomobil yo‘lining 0-1-km.lari oralig‘i “Dashtobod” shahar, Navoiy ko‘chasida,Dashtobod dehqon va buyum bozorlari joylashganligi hamda transport vositalari tirbandligi ko‘payganligi sababli, transport vositalarining ravon harakatlanishini ta’minlash maqsadida yo‘lning ikkala tomoniga 3.27 “To‘xtash taqiqlangan” yo‘l belgilarini o‘rnatish choralarini ko‘rsinlar.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashi doimiy komissiyalari raislari hamda tuman hokimining o‘rinbosari Z.Omonqulov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

ABDUGANIYEV
ALISHER
MUXAMMADIYEVICH